



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**KO'P MA'NOLI SO'ZLARNI QAYTA ISHLASHNING GIBRID
MODELLARI**
HYBRID MODELS FOR PROCESSING POLYSEMOUS WORDS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/YZLX9342

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi

tayanch doktorant,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Xayrinisomamirova06@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda ko'p ma'noli so'zlarning qabul qilinishi, tushunilishi, anglanishi, bir so'z bilan aytganda, qayta ishlash jarayonining mental leksikonda namoyon bo'lishiga aloqador modellar va psixolingvistik asoslari yoritiladi. Tabiiy til tizimida ko'p ma'nolilik hodisasining muhimligi hamda bunday leksik hodisalarni anglash jarayonidagi kognitiv mexanizmlar tahlil qilinadi. Selektiv, parallel, tartibli, SEL., GL., pragmatik model yondashuvlar misollar asosida tushuntiriladi. Berilgan modellarning chegaralari asosida gibrid modellari yuzaga kelishi tushuntiriladi. Aqliy leksikon faoliyatida leksik polisemiyaning qayta ishlanishi, chastota va kontekst omilining ta'siri experimental psixolingvistika ma'lumotlari asosida izohlanadi. Tahlillardan kelib chiqib, gibrid modellarning ko'p ma'noli so'zlarni anglashda eng samarali yondashuv ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: ko'p ma'noli so'zlar, an'anaviy modellar, SEL modeli, GL modeli, pragmatik model, gibrid modellar, aqliy leksikon, RT (reaction time) metodi, experimental psixolingvistika, kognitiv mexanizm.

Annotation. This thesis elucidates the models and psycholinguistic foundations related to the manifestation of processing polysemous words in the mental lexicon, including their reception, understanding, and comprehension - in a word, their processing. The significance of polysemy in natural language systems and the cognitive mechanisms involved in understanding such lexical phenomena are analyzed. Selective, parallel, ordered, SEL, GL, and pragmatic model approaches are explained through examples, and the emergence of hybrid models based on the limitations of these models is discussed. The processing of lexical polysemy in mental lexicon activity and the influence of frequency and context factors are explained based on experimental psycholinguistic data. The analysis substantiates that hybrid models are the most effective approach to understanding polysemous words.

Keywords: polysemous words, traditional models, SEL model, GL model, pragmatic model, hybrid models, mental lexicon, RT (reaction time) method, experimental psycholinguistics, cognitive mechanism.



Nazariy tilshunoslik va psixolingvistik tadqiqotlarda ko‘p ma’nolilik hodisasiga qaratilgan muammolar yetakchi o‘rinni egallaydi. Bir leksik shaklning turli xil mazmunga ega kontekstlar tarkibida kelib turlicha ma’no ifodalay olishi tabiiy til tizimining moslashuvchanligi va kognitiv murakkabligini ko‘rsatadi [Jackendoff, 2002: 264]. Shuning uchun ham leksik polisemiya insonning aqliy leksikoni va leksik birliklarni qayta ishlash mexanizmlarini tadqiq qilishda ham nazariy, ham amaliy masaladir.

Psixolingvistika sohasi nuqtayi nazaridan, so‘z ma’nolarini qayta ishlash jarayoni murakkab kognitiv faoliyat bo‘lib, bu jarayonda xotira, idrok hamda diqqat kabi psixik jarayonlar aktiv ishtirok etadi [Levelt, 1989: 211; Aitchison, 2012: 54]. Ko‘p ma’noli so‘zning qaysi ma’nosi birinchi faollashishi, qaysi omillar sema tanlovini belgilashi haqida bir qancha nazariy modellar taklif qilingan. Masalan, Parallel Access Model, Selective Access Model va Ordered Access Model kabi modellar tabiiy tilni anglash jarayonini tushuntirishda, izohlashda ahamiyatli bo‘lgan [Fordor, 1983: 45; Traxler, 2012: 216].

Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolarining faollashuvi kontekst, ma’no chostatasi, semantik yaqinlik hamda kognitiv resurslar bilan bevosita bog‘liq. Shunga asosan, Duffy, Morris va Rayner (1988) va Rodd, Gaskel, Marslen-Wilson (2002) kabi olimlarning amaliy tadqiqot ishlarida an’anaviy modellar ko‘p ma’nolilikning barcha jihatlarini qamrab ololmasligini bildirishadi. Mana shunday tanqidiy yondashuvlar natijasida, “Gibrid modellar” shakllantirildi. Bunday modellar turli xil nazariy qarashlarni uyg‘unlashtirib, ko‘p ma’noli so‘zlarning qayta ishlash jarayonini mukammalroq tushuntirish imkonini berdi.

Maqolaning muhim jihati ham shundaki, leksik polisemiya fenomenini anglashda gibrid modellarni psixolingvistik asoslar bilan birgalikda o‘rganish (o‘zbek tili misolida) nazariy tilshunoslikda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning natijasi orqali, maqolada ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlash jarayoning psixolingvistik mexanizmlari tahlilga tortildi va o‘zbek tili misolida ham gibrid modellarning samaradorligi asoslandi.

Maqolada obyekt sifatida, tabiiy tilni qabul qilish va tushunish jarayonida shaxs aqliy leksikonida ko‘p ma’noli so‘zlarning qayta ishlanishi belgilandi.

Aqliy leksikon va ko‘p ma’nolilik

1. Mental leksikon – inson ongida so‘zlar, so‘z ma’nolari, fonologik va morfologik xususiyatlari hamda semantik, sintaktik bog‘lanishlar saqlanadigan psixologik tuzilma [Levelt, 1989: 51].

2. Aqliy leksikon – so‘zlarni tanlash, anglash hamda ishlab chiqarish jarayonida ahamiyatli va tabiiy tilni qayta ishlash mexanizmlarining markaziy elementi [Aitchison, 2012: 133].

3. Aqliy leksikon tarmoq shaklida tarkib topgan. Unda so‘zlar o‘zaro semantik, morfologik va fonologik bog‘lanishlar orqali anglash jarayonida faollashdi [Traxler, 2012: 284].



Bir leksik shaklning turli ma'nolari kognitiv resurslar, kontekst va ma'no chastotasiga asoslanib tanlanishi ko'p ma'noli so'zlarning ongda qayta ishlanishidagi muhim mexanizmdir [Rodd, Gaskell va Marslen-Wilson, 2002: 420]. Masalan, o'zbek tilidagi "butoq" so'zi: tabiat bilan bog'liq, botanik kontekstda bo'lsa "daraxtning tanasidan yoki yo'g'on shoxlaridan tarmoqlanib chiqqan yon shox" (*Yulg'unning qovjiroq butoqlarini terib gulxan yoqdi. A.Siyoyev, Avaz.*) ma'nosi faollashadi. Tarixiy kontekstda esa "Tarmoq, shaxobcha, pog'ona, avlod" (*Somoniylar shajarasining so'nggi butog'i bo'lgan podsho Nuh ibn Mansur kasalmand odam edi. M.Osim, Ajdodlarimiz qissasi*) ma'nosi ustun bo'ladi [O'TIL, I, 2023: 658].

Quyida aqliy leksikonda ko'p ma'noli so'z semalarining faollashuvini tadqiq qilgan an'anaviy modellarni ko'rib chiqamiz:

1) *Selective Access Model (SAM)* – doim dominant ma'no birinchi faollashadi, ammo kontekst o'zgarganda moslashuvi cheklangan. Masalan, "Bosh" ko'p ma'noli so'zining "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 20 ta ma'nosi berilgan:

1. Tana a'zosi, kalla. 2. *Ko'chma*. Aql-hush, miya. 3. Boshliq, rahbar. 4. Lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi. 5. Ulkan, katta, asosiy. 6. *sft.* Eng muhim, asosiy, yetakchi. 7. *sft.* Eng oldingi, birinchi. 8. *ko'chma s.t.* Odam, kishi. 9. (*sanoq sonlar bilan*) Chorva hisobida har bir adad jonivor. 10. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi. 11. Biror marosim, tadbir, voqea-hodisaning ro'y berish, amalga oshish jarayonidagi dastlabki bosqich. 12. Yon, old, tomon. 13. O'rin, karavat va sh.k. ning bosh qo'yiladigan tomoni. 14. Ba'zi otlar bilan birikib, shu ot orqali ifodalangan narsaning o'zini yoki o'rnashgan joyini, yon-atrofini bildiradi. 15. Cho'ziq, davomli, bo'yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi; shunday narsalarning ikki uchidan, chekkasidan, tomonidan biri. 16. Voqea, hodisaning, biror muddat yoki faslning, asar, matn va sh.k. ning boshlanish joyi, payti, avvali, muqaddimasi. 17. Voqea, hodisa va sh.k. ning boshlanishi uchun bahona bo'lgan narsa, dastlabki sabab. 18. Ba'zi o'simliklarning kalla yoki chanoq shaklidagi hosili, mevasi. 19. (*sanoq sonlar bilan*) Karra, hisob. 20. 3-sh. Egalik va j.k., o'. –p.k., ch.k. affikslari bilan ko'makchi vazifasida qo'llanadi (boshiga, boshida, boshidan) [O'TIL, I, 2023: 590].

Demak, SAM modeliga ko'ra, "bosh" so'zining mana shu 20 ta ma'nosidan, faqat bittasi: bosh so'z hisoblangan – "Tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kallasi" ma'nosi birinchi faollashadi.

2) *Ordered Access Model (OAM)* – ko'p ma'noli so'z ma'nolari chastota tartibida faollashadi, ammo bu model ham kontekstning murakkab ta'sirini hisobga ol olmaydi.

OAM – modeliga ko'ra, "bosh" so'zining qaysi ma'nolari chastotasi yuqori bo'lsa, ana shu ma'nolar ketma-ketlikda faollashadi. Masalan, birinchi "tana a'zo", ikkinchi "rahbar", uchinchi "miya" ma'nosi kabi ketma-ketlikda. Bu ketma-ketlik izohli lug'at tartibidan farq qilishi ham mumkin. Chunki jonli nutqda til o'zlashtiruvchilar turli mazmundagi kontekstda ishtirok etgan bo'lishi mumkin.

3) *Parallel Access Model (PAM)* – bir vaqtning o'zida barcha ma'nolar faollashadi, tanlovni esa kontekst belgilaydi. Ammo bu model nazariyasi haqiqat bo'lishi uchun juda ko'p kognitiv resurs talab qilinadi.


PAMga ko'ra, “bosh” so'zining barcha: 20ta ma'nosi bir vaqtning o'zida faollashadi. Nutqiy vaziyatga kontekst kirib kelgandan keyin kerakli ma'no aniqlanadi. Masalan, “Huzuringga kelishimning bosh sababi shundadir” gapi eshitilganda tinglovchi aqliy leksikonida 20 ta ma'no birdan faollashadi va ularning ichidan O'TIL dagi 6-ma'no (“Eng muhim, asosiy, yetakchi”) tanlab olinadi.

Endi bu modellarning afzal va nuqsonli jihatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi va ikkinchi modellar “tezkorlik” jihatidan aqliy leksikon faoliyatiga mos tushadi, ammo kontekst omilini hisobga olmaydi. Uchinchi model esa kontekstga moslashishda samaraliroq, ammo real nutqda kognitiv resurslarni haddan ortiq ko'p talab qiladi [Duffy, Morris va Rayner, 1988: 229-246].

Quyida yana bir nechta mashhur modellar haqida ma'lumot beriladi:

1) *SEL (Sense Enumeration Lexicon/ ma'nolarni alohida sanovchi) modeli* – unga ko'ra aqliy leksikonda ko'p ma'noli so'zning har bir ma'nosi alohida saqlanadi. Bu model tizimni sodda tushuntirishi bilan ustun, ammo semantik bog'lanishlarni tushuntirmaydi.

Bu modelga ko'ra, “bosh” so'zi har bir ma'nosi (20 ta ma'no) alohida neyron tugun (aylana ko'rinishida) holida aqliy leksikonda saqlanadi. Tugunlar orasida semantik bog'lovchi chiziqlar bo'lmaydi, alohida ro'yxat shaklida saqlanadi. Quyida SEL modelining miya neyron xartasini ko'rish mumkin:




2) *Pustejovskiy (Generativ Lexicon) modeli* – bu modelga ko'ra, ma'no chuqur semantik struktura orqali kontekstga qarab generatsiya qilinadi. Bu model James Pustejovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu yondashuvda polisemiya hodisasi murakkab, chuqur semantik tuzilma orqali izohlanadi. Ko'p ma'nolilik hodisasi tabiiy tushuntiriladi, biroq bu tushuntirish usuli eksperimental tadqiqotlar uchun murakkabdir. Ya'ni ko'p ma'noli so'zning bitta asosiy *yadrosi* bo'ladi va mana shu yadrodan kontekstga qarab so'zning turli semantik variantlari


generatsiya qilinadi. Bunday murakkab jarayon quyidagicha 4 ta bosqichda amalga oshadi:

1. *Argument tuzilishi* – so‘z qanday sintaktik vazifa bajarayotganligi aniqlanadi.
2. *Voqea tuzilishi* – so‘z kontekst tarkibida qanday hodisani bildirib kelayotgani aniqlanadi.
3. *Ichki tuzilish (qualia structure)* – so‘z ifodalab kelayotgan pretmet, hodisa, harakat yoki holatning mohiyati (funksiyasi, tarkibi, roli) ni ochib beradi.
4. *Meronimik tuzilish* – qism-butun (bosh-tana) munosabati [Pustejovskiy, 1995: 322].

GL modeliga ko‘ra, “bosh” so‘zi yagona markazdan turib, turli kontekstda tabiiy ravishda yangi ma‘nolarni generatsiya qiladi. Masalan, “O‘zbek oyim boshi bilan keliniga rizolik bildirib, “barakalla” deb qo‘ydi. Bu gapda “bosh” – “tananing a‘zosi”. GL nuqtayi nazaridan: kontekst (paralingvistik harakat – rozilik ishorasi) so‘zning tanaviy/organik qualiasini faollashtiradi va mana shu ma‘nosini generatsiya qiladi. Quyida GL modelining miya neyron xartasini ko‘rishimiz mumkin:




3) *Pragmatik model* – unda, ko‘p ma‘noli so‘zning kerakli ma‘nosini faqat kontekst va nutqdagi niyatgina belgilay oladi. Ushbu modelning muhim tomoni real nutq jarayonini hisobga oladi, ammo formal model sifatida cheklangan. Ko‘p ma‘nolilikni faqat kommunikativ vaziyatgina hal qila oladi, deb hisoblaydi. Masalan, “bosh” so‘zining 20 ta ma‘nosi ham miyada saqlanadi, lekin nutqiy vaziyatga qarab kerakli ma‘no neyroni faollashadi:



Bunga ko'ra, inson aqliy leksikonida markazda bosh so'zning shakli saqlanadi, atrofida uning potensial ma'nolari o'rin oladi, kontekst yuzaga kelganda nutqiy vaziyatga tegishli tugun yoqiladi, qolganlari nafaol qoladi. Tugun yonishi holatini quyidagi tasvirda ko'rish mumkin:

Oddiy so'z aytilganda neyronlarning chaqnashi



Gibrid modellar va ularning samaradorligi

Gibrid modellar an'anaviy modellarning eng samarali va to'g'ri jihatlarini, elementlarini oladi. Jumladan, SEL modelidagi leksik aniqlikni qabul qilgan, Pustejovskiy modeli orqali esa kontekstga mos ma'no generatsiyani amalga oshiradi hamda pragmatik omillarni ham ko'zdan qochirmaydi. Gibrid modellar ko'p ma'nolilik hodisasini tushuntirishda eng samarali yondashuvdir. Ya'ni gibrid modellari turli yondashuvlarning afzal jihatlarini birlashtiradi va aqliy leksikondagi kognitiv jarayonlarni yanayam aniqroq tushuntiradi.

Ekspirimental psixolingvistik tadqiqotlar: reaksiya vaqti, primining, neyropisixologik kuzatuv kabilarda gibrid modellarini ilmiy asos sifatida qo'llash imkonini beradi. Ya'ni gibrid modellari reaksiya vaqtini qisqartirish, kontekstga moslashuvchanlikni oshirish va ko'p ma'nolilik hodisasini yanada samarali tushuntirish imkonini beradi [Froker va Murphy, 2012: 585-596].

Xulosa qilib aytganda an'anaviy modellar ko'p ma'nolilik hodisasini qisman tushuntirasa, SEL, Generativ Lexicon va Pragmatik modellar ko'p m'noli



so‘zlarning individual jihatlarini yoritadi. Yuqoridagi modellardan farqli o‘laroq, gibrid modellarining kombinatsiyasi psixolingvistik experimentlarning natijalari bilan mos keladi. Shu bilan birga, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashirish jarayonini samarali tushuntiradi.

Yuqoridagi xulosadan kelib chiqib, ayni shu yo‘nalish, asosdagi tadqiqot ishlarida gibrid modellarni o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish yoki chet tili bilan bog‘liq masalar; til o‘qitish yoki o‘rganishda semantik qiyinchiliklarni kamaytirish; sun‘iy intellektda tabiiy tilni qayta ishlash jarayonlariga tadbiq qilish kabi ishlarda istiqbolli izlanish sifatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aitchison J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. – Oxford, 2012. – 352 p.
2. Cruse, D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 309 p.
3. Duffy, S. A., Morris, R. K., Rayner, K. Lexical ambiguity and fixation times in reading, 1988. – Vol. 27, No. 4. – P. 429–446.
4. Fodor, J. A. The Modularity of Mind. – Cambridge, MA: MIT Press, 1983. – 145 p.
5. Frцcker, M., Murphy, G. L. Polysemy and memory retrieval: The role of meaning frequency in recognition // Memory & Cognition. – 2012. – Vol. 40, No. 4. – P. 585–596.
6. Jackendoff, R. Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 477 p.
7. Каган, В. Е. Психолингвистика: учебное пособие. – М.: Академия, 2009. – 368 с.
8. Кубрякова, Е. С. Язык и знание : На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
9. Levelt, W. J. M. Speaking: From Intention to Articulation. – Cambridge: MIT Press, 1989. – 566 p.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – J. 1.
11. Pustejovsky, J. The Generative Lexicon. – Cambridge: MIT Press, 1995. – 322 p.
12. Rodd, J. M., Gaskell, M. G., Marslen-Wilson, W. D. Modelling the effects of semantic ambiguity in word recognition. – Cognitive Science. – 2004. – Vol. 26, No. 3. – P. 415–449.
13. Traxler, M. Introduction to Psycholinguistics: Understanding Language Science. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. – 416 p.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774